

**KITOBXONLARGA KUTUBXONADAN TASHQARI XIZMAT  
KO'RSATISHNI AHAMIYATI VA UNDA KUTUBXONACHINING ROLI**

*Xudoyqulova Nodira Murodovna*

*Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi*

*Ijtimoiy amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kutubxonalarda xizmat ko'rsatish turlari va ularning ahamiyati haqida so'z boradi. Foydalanuvchilarga kutubxonada va kutubxonadan tashqarida xizmat ko'rsatish usullari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** kutubxona-axborot faoliyati, kitob, foydalanuvchi, hujjat, faoliyat, kutubxona, jamiyat, jamoa, xizmat ko'rsatish, tizim, kadr,

Zamonaviy kutubxonalar nafaqat kitob va bosma manbalar bilan ta'minlovchi maskan, balki axborot, madaniy va ta'lim xizmatlarini taqdim etuvchi muassasa sifatida faoliyat yuritmoqda. Ushbu maqolada kutubxonalar tomonidan foydalanuvchilarga taklif etilayotgan qo'shimcha xizmat turlari va ularning ahamiyati tahlil qilinadi. Kutubxonalar tomonidan foydalanuvchilarga taklif etilayotgan qo'shimcha xizmatlar ularning bilim olish, tadqiqot olib borish va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Zamonaviy kutubxonalar ushbu xizmatlarni takomillashtirish orqali yanada samarali faoliyat yuritishi mumkin. Internet tizimi qanchalik kengayib foydalanuvchilar hayotiga qanchalik chuqur kirib borsa kutubxonachi va foydalanuvchi o'rtasidagi yuzma-yuz muloqot hajmi ham shunchalik kamayib boradi. So'nggi paytlarda kutubxonalariga tayyor faktlarga oid ma'lumotlarni so'rab murojaat etuvchi foydalanuvchilar soni kamayib, keng ko'lamli izlanishlarni taqozo qiluvchi savollar soni ko'payib borayotganligi qayd qilinmoqda. Bu orqali kutubxonalar o'z faoliyatini foydalanuvchilarning xohish va istaklariga binoan tashkillashtirib, kutubxona – axborot xizmati sifatini yanada oshirishga harakat qilmoqda.

Zamon rivojlanib axborot texnologik jarayonlari natijasida kelib chiqayotgan yangi talablar kutubxonachilar uchun quyidagi malakaviy darajaga erishish vazifalarini qo'ymoqda:

– kutubxona – axborot xizmatlarini yangi avlod ma'lumot texnologiyalariga asoslangan holda tavsiya eta olish, kutubxona – axborot xizmati faoliyatini internet tarmog'i orqali samarali targ'ib qila bilish

– elektron manbalarni saralay bilish ma'lumotni onlayn shaklda qidira olish, manbalarni baholay olish qobiliyatiga ega bo'lish;

– foydalanuvchiga maslahat bera olish malakasiga ega bo'lish, bilim berish iqtidoriga ega bo'lish, ish faoliyati davomida yangi bilim olishga doimiy intilish.

– shaxsiy munosabatlarni o‘rnata olish qobiliyatiga egaligi, o‘zgarishlarga moslasha olish qobiliyatiga egaligi;

Albatta kutubxonachilarning foydalanuvchilarning turli ehtiyojlarini bajarishga oid faoliyatlari davomida savollarning ko‘pchiligi yuzma-yuz emas, balki onlayn muloqot davomida beriladi. Kutubxonachilarning maslahat berish bilan bog‘liq faoliyati kengayib boradi va ular foydalanuvchilarning mushkul savollariga javob topishda yordam berishlari hamda ehtimol tutilgan yordamga tayyor bo‘lib turishlari zarur bo‘ladi.. Bugungi kun kutubxonachilari ma‘lumot berishning yangi texnologiyalari bilan ishlashni yaxshi o‘zlashtirib olishlari, tezlikda yuz berayotgan o‘zgarishlar va innovatsiyalar bilan moslashgan tarzda faoliyat ko‘rsatishlari kerak. Ularning Feysbuk (Facebook) va My Space kabi ijtimoiy tarmoqlardan, mohirlik bilan foydalanish salohiyati foydalanuvchilar bilan tezlikda bog‘lana olish imkoniyatini beradi. Kutubxona bosma nashr manbalari bilan ular kutubxona fondidan joy olishiga qadar qanday jarayonlar amalga oshirilsa kutubxonachilar elektron manbalarni ham saralash, baholash, ularni elektron fondga qo‘shish, ular haqidagi ma‘lumotlarni foydalanuvchilar orasida tarqatish kabi faoliyatni amalga oshiradi. Axborot savodxonligini oshirishda kutubxonachilar va foydalanuvchilar ishtiroki muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu jarayon ham yuzma-yuz, ham guruhlar ko‘rinishida amalga oshirilishi mumkin. Foydalanuvchilarning ehtiyojiga asoslangan kutubxona–axborot xizmatining takomillashtirilishi, o‘z navbatida ularga maslahat berish malakasining ham takomillashtirilib borilishini talab qiladi. Foydalanuvchilarga kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatish muayyan axborot tizimi orqali ma‘lum ehtiyojini qondirishga xizmat qiluvchi amaliy ma‘lumot bilan ta‘minlash jarayoni hamdir.

Kutubxonani foydalanuvchilarga kutubxonadan tashqari xizmat ko‘rsatish turi axborot xizmatining muayyan sabablarga ko‘ra kutubxonaga kela olmaydigan foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish orqali muhim ijtimoiy vazifani bajaradi. Kutubxonadan tashqarida xizmat ko‘rsatishning ananaviy shakllari “Ko‘chma kutubxona”, “Ko‘chma o‘quv zali”, “Kitob berish punkti”, “Kitob eltuvchi”, “Bibliobus” xizmati kabilarni o‘z ichiga oladi.

“Ko‘chma kutubxona”- jamoatchilik bilan hamkorlikda tashkil etilib, kutubxonaning xizmat ko‘rsatishi hududida joylashgan tashkilot, muassasa va karxonalarda, shuningdek , kutubxonadan uzoqda joylashgan aholi uchun tashkil etiladi. U o‘z oldiga o‘sha joydagi ishchi-xizmatchilarni, aholini kitob mutolasiga jalb etish, ular o‘rtasida kitobxonlikni targib etish va ularning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishni maqsad qilib qo‘yadi. Ko‘chma kutubxona xizmatidan foydalanuvchilarning talab-extiyojlaridan kelib chiqqan holda faoliyat sohasiga oid axborot manbalari, badiiy kitoblar, bolalar adabiyotlari bilan ta‘minlash, belgilangan muddatlarda almashtirish, yangi olingan nashrlar to‘g‘risida axborot byulletenlari yordamida xabarlar etish, jamoatchi kutubxonachining xizmat

ko'rsatish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi va tadbirlar uyushtirishda amaliy-uslubiy yordam beradi.

Tashkilot muassasa, korxonalar esa ko'chma kutubxonaning faoliyat olib borishi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratib berish, jamoatchi kutubxonachi taynlash, joy ajratish, zarur jixozlar bilan ta'minlash, vaqtincha foydalanish uchun berilgan manbalarning saqlanishi, zarar yetkazilishining oldini olish va boshqa majburiyatlarni oladi.

“Ko'chma uquv zali”. Xizmat ko'rsatishning mazkur turi foydalanuvchilarni mutolaaga jalb etish, yangiliklardan tezkor xabardor bo'lish, jamoa bo'lib mutolaa qilish, olingan taassurotlarni almashish, foydalanuvchilardan har birining o'z iqtidorini namoyon eta olishi uchun imkoniyat yaratib berishdan iboratdir.

Ko'chma uquv zali maktabgacha ta'lim muassasalari, dam olish va davolash muassasalarida foydalanuvchilarning mutolaa bilan shug'ullanishlari uchun vaqt va imkoniyatlari yetarli ekanligi hisobga olingan holda tashkil etiladi. Ko'chma uquv zalining fondi vaqtli matbuot nashrlari, ensiklopedik nashrlar, talab darajasi yuqori bo'lgan badiiy va bolalar adabiyoti hamda ilmiy-ommabop adabiyotlarni o'z ichiga oladi.

Kitob berish punkti- kutubxonadan olisda joylashgan aholi punktlari, mikro rayonlar, yirik sanoat korxonalari, fermer xo'jaliklari, katta kontenentga ega bo'lgan o'quv muassasalarida tashkil etiladi. Kitob berish punktining ish tartibi haftaning ma'lum kunlarida foydalanuvchilar asosiy mashg'ulotlari bilan band bo'lmagan vaqtlarida ular uchun qulay holda belgilanadi. Kitob berish punkti faoliyatini hisobga olish xujjatlar turi va yuritilish tartibi statsionar kutubxonalar bilan bir xilda yuritiladi.

Kitob eltuvchi ish xizmat turi asosan jamoatchilik yordamiga tayangan holda yo'lga qo'yiladi. Kutubxonachi faol, targ'ibotchi foydalanuvchilar, ko'ngillilar yordamida xizmat ko'rsatish xududidagi keksalar, nogironlarga kutubxona xizmatini yo'lga qo'yadi. Xizmatning kitob eltuvchilik turi xizmat hududidagi oilalarni har tamonlama o'rganilgan holda va aniq reja asosida amalga oshiriladi.

Kitob eltuvchilar belgilangan vaqtlardagi tashriflardan tashqari yelektron pochta va ijtimoiy tarmoqlardagi messenjerlar orqali o'z foydalanuvchilardan olingan byurtmalarni ham tezkorlik bilan bajarishlarni yo'lga qo'yishlari mumkin.

Bibliobus xizmati. Bu xizmat turi yordamida markazdan yiroqda joylashgan aholi punktlari, tashkilot, muassasa, fermer xo'jaliklari va boshqalarga maxsus jixozlangan avtotransport vositalarida borib kutubxona-axborot xizmati ko'rsatish amalga oshiriladi.

Bibliobus xizmatining o'ziga xos qulayligi shundan iboratki, nisbatan qisqa vaqt mobaynida bir qancha obyektlarga kutubxona-axborot xizmat ko'rsatish imkoniyati mavjuddir. Ushbu xizmat turi yozgi oromgohlardagi sog'lomlashtirish davrlarida

ancha qulay hisoblanadi.

Xullas kutubxona-axborot xizmatining kutubxonadan tashqari (Aostatsionar) shaklida foydalanuvchilar uchun ularga qulay bo'lgan vaqt va imkoniyat alohida hisobga olinadi.

Xorijiy mamlakatlarda ko'chma kutubxonalar qariyalarda uylarida yashovchilar va nogironlar uchun. kasalxonalar va hatto turmadagilar uchun ham xizmat ko'rsatadi. Ko'chma kutubxonaning bugungi kundagi eng tarqalgan turi –bibliobuslar bo'lib, kompyuterlar, axborot yetkazishning elektron vositalari bilan ham maxsus jihozlangan bo'ladi. Ananaviy xizmat ko'rsatish turlaridan tashqari bibliobuslar yozuvchilar, aktyorlar bilan uchrashuvlar tashkil etishi, o'z foydalanuvchilarining ehtiyojlarini o'rganishi bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishi ham mumkin. Bibliobusning harakat yo'nalishi, ish vaqti, muayyan hududdagi punktda turish vaqti kutubxona va mahalliy hokimiyat o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi. Bibliobuslar orqali kutubxona-axborot xizmati ko'rsatish kutubxonada amalga oshiriladigan xizmatdan unchalik farq qilmaydi. Bugungi kunda bibliobuslardan ko'pgina mamlakatlarda xususan AQSH, Argentina, Avstraliya, Gretsiya, Buyuk Britaniyada keng foydalanilmoqda. Kitobni uyga yetkazish insonparvarlik maqsadlarida keng qo'llanilib, nogironlar va qariyalarga xizmat ko'rsatadi. Xizmat ko'rsatishning ushbu shakli kutubxonadan foydalanuvchilar miqdorini saqlash, muloqot va mutolaa yordamida amalga oshiriladigan ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashda muhim ahamiyatga egadir.

Kitobni uyga yetkazish amaliyoti xorijiy mamlakatlarda keng qo'llaniladi. AQSH da Amerika kutubxonalari assotsatsiyasi tomonidan 1964-yildayoq qabul qilingan “Kutubxonalarning qariyalarga nisbatan masuliyati” nomli hujjatda kutubxona xizmati ko'rsatish shakllari qariyalarda, nogironlar va ularga tenglashtirilgan ijtimoiy muassasalar ehtiyojlariga ham mos kelishi shart ekanligi belgilab qo'yilgan. Xizmat ko'rsatishning ushbu turlari ko'pgina Yevropa mamlakatlarida, Kanada va Yaponiyada ham mavjuddir. Kutubxona – axborot faoliyatida axborot bilan taminlash tizimida yanada yuksakroq mavqega ega bo'lish uchun kutubxonalar foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirish maqsadida turli resurslardan foydalanish imkonini beradigan qo'shimcha xizmatlarni ham rivojlantirishlari zarur bo'ladi. Bugungi kunda kutubxonalar yaxshiroq xizmatni taminlash uchun ham kengroq turli xizmat turlarini joriy etish va keng miqyosida foydalanishlari kerak bo'ladi Hozircha kutubxona – axborot xizmati ko'rsatishda ananaviylik va zamonaviylikni turli ko'rinishdagi xizmatlar mavjud. Bunda shu narsani nazarda tutish zarurki Chunki kutubxonalarda hozirgacha manbaalar, hujjatlar, malumotlarning qog'oz variantlarda mavjuddir. Manbalardan foydalanuvchilarni qay ko'rinishda, qaysi usulda foydalanishi ko'p hollarda kutubxonachi mutaxassislarni mahoratiga bog'liq bo'ladi. Manbalarni shaxs va jamiyat rivojlanishi uchun ijobiy xususiyatga ega bo'lgan tomonlariga etibor bergan holda tavsiya qilish va foydalanuvchilarga etkazib berish

jamiyat rivoji uchun muhim masaladir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘.Nosirov KUTUBXONA – AXBOROT XIZMATI: NAZARIYASI VA AMALIYOTI.-Toshkent ,2023
2. Kutubxonashunoslik fanidan o‘quv-uslubiy majmua. Namangan – 2021
3. Saidov U., Nigmatova Z., Shamsiyev Sh. Kutubxonashunoslik va bibliografiya atamalarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. –
4. Axunjonov E. Kutubxonashunoslik, Arxivshunoslik, Kitobshoslik nazariy va tarixi.-Toshkeht.: Tafakkur, 2011.